



CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*2022- yil yanvar-may holatiga ko'ra
dastlabki ma'lumot*




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **108 281,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **10,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **23 436,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **130,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **84 844,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,6**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **9 157,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,5 %**) tashkil etdi.


O'sish sur'atlari, foizda



Asosiy tarkib, foizda



Tarkibiy qism, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm

Dehqon bozori

4 062,3
44,4 %

Chorva bozori

5 094,9
55,6 %

Jami
Uyushmagan savdo
9 157,2



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **108 281,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **110,1** % ni tashkil etdi.

Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **78,4** % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **21,6** % yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 25,6 % ulush bilan 27 683,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

1 Toshkent sh.
27 683,7

2 Toshkent
10 960,5

3 Samarqand
9 094,8

4 Farg'ona
8 783,5

5 Andijon
7 524,8

6 Qashqadaryo
6 709,8

7 Namangan
6 569,3

8 Surxondaryo
6 546,0

9 Buxoro
6 356,2

10 Xorazm
4 494,3

11 Navoiy
4 201,4

12 Jizzax
4 031,4

13 Qoraqalpog'iston
Respublikasi
3 645,3

14 Sirdaryo
1 680,4

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Sirdaryo viloyati 1,6 % ulush bilan 1 680,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan respublikaning Jizzax (115,0 %), Toshkent (114,0 %), Namangan (113,5 %) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent viloyatida qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	108 281,3	110,1	23 436,4	130,2	84 844,8	105,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 645,3	109,9	358,2	161,8	3 287,0	106,2
<i>viloyatlar :</i>						
Andijon	7 524,8	112,1	887,6	124,4	6 637,2	110,6
Buxoro	6 356,2	113,2	1 052,1	161,4	5 304,1	106,9
Jizzax	4 031,4	115,0	576,6	136,4	3 454,8	112,1
Qashqadaryo	6 709,8	107,2	537,3	109,2	6 172,5	107,0
Navoiy	4 201,4	112,2	758,9	134,8	3 442,5	108,2
Namangan	6 569,3	113,5	594,5	147,6	5 974,8	111,0
Samarqand	9 094,8	109,2	1 934,8	120,6	7 160,0	106,4
Surxondaryo	6 546,0	107,2	497,4	142,5	6 048,7	105,0
Sirdaryo	1 680,4	105,8	108,6	95,5	1 571,7	106,6
Toshkent	10 960,5	114,0	3 408,9	183,6	7 551,6	97,3
Farg'ona	8 783,5	108,3	1 158,6	170,9	7 624,9	102,6
Xorazm	4 494,3	112,4	1 053,9	201,2	3 440,4	99,0
Toshkent sh.	27 683,7	108,0	10 509,1	111,9	17 174,6	105,7




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Yirik korxonalar



**Kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik**

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **30,2 %** ga o'sdi va **23 436,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **21,6 %** ulushiga to'g'ri keldi.

Eng past ulushga ega hududlar, % da



Yirik korxonalar




**Kichik biznes
va xususiy tadbirkorlik**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **84 844,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **5,6 %** ga ko'paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **78,4 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda**

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sirdaryo (**93,5 %**), Surxondaryo (**92,4 %**), Qashqadaryo (**92,0 %**), Namangan (**91,0 %**) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **21,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (**38,0 %**), Toshkent (**31,1 %**), Xorazm (**23,4 %**) va Samarqand (**21,3 %**) viloyatlarida kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yirik korxonalar






AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-may oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 062,9** ming so'mni (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **7,9 %** ga oshdi) tashkil etdi.

Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan, % da
O'zbekiston Respublikasi	3 062,9	107,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	1 867,3	108,4
Andijon	2 307,5	109,8
Buxoro	3 210,2	111,5
Jizzax	2 786,0	112,4
Qashqadaryo	1 964,4	104,9
Navoiy	4 054,6	109,9
Namangan	2 236,0	111,0
Samarqand	2 250,9	106,8
Surxondaryo	2 380,0	104,7
Sirdaryo	1 907,8	103,6
Toshkent	3 719,1	115,3
Farg'ona	2 249,3	106,2
Xorazm	2 331,7	110,6
Toshkent sh.	9 642,2	101,8

Eng yuqori hajmga ega hududlar

- 1 Toshkent sh. – 9 642,2
 - 2 Navoiy – 4 054,6
 - 3 Toshkent – 3 719,1
- 

Eng past hajmga ega hududlar


- 1 Qashqadaryo– 1 964,4
 - 2 Sirdaryo – 1 907,8
 - 3 Qoraqalpog'iston Respublikasi – 1 867,3
- 

* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Toshkent shahri (9 642,2 ming so'm), Navoiy (4 054,6 ming so'm) va Toshkent (3 719,1 ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI


Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Asosiy tarkib, foizda



Savdo hajmi va ulushi



Respublika bo'yicha 2022- yil yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **9 157,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **10,5%** ga oshdi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **4 062,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **16,1 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **5 094,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **6,3 %**) tashkil etdi.



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	9 157,2	110,5	4 062,3	116,1	5 094,9	106,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	366,3	100,5	164,5	113,0	201,8	92,1
viloyatlar:						
Andijon	960,8	124,9	327,7	135,7	633,1	120,0
Buxoro	606,5	120,6	266,9	104,4	339,6	137,4
Jizzax	715,4	115,9	314,6	188,4	400,8	89,0
Qashqadaryo	868,9	113,9	411,1	106,8	457,8	121,2
Navoiy	219,6	125,2	119,3	121,4	100,2	130,1
Namangan	866,2	115,0	372,0	124,5	494,2	108,7
Samarqand	799,9	109,1	199,2	117,3	600,7	106,6
Surxondaryo	1100,2	112,5	433,2	152,7	667,0	96,1
Sirdaryo	153,5	115,1	65,2	131,6	88,3	105,4
Toshkent	670,2	95,4	267,2	93,2	402,9	96,9
Farg'ona	591,3	99,8	300,6	100,3	290,7	99,2
Xorazm	661,1	102,6	299,4	97,0	361,7	107,8
Toshkent sh.	577,4	102,3	521,4	102,3	56,0	101,8

2022- yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **4 062,3** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **5 094,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-may oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **4 062,3 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**1 810,9 mlrd. so'm**) to'g'ri keldi.



85,8
mlrd. so'm

Tuzlamalar



1 810,9
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari



209,6
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)



310,3
mlrd. so'm

Tovuq go'shti



523,0
mlrd. so'm

Non va non mahsulotlari



179,1
mlrd. so'm

Tuxum



414,9
mlrd. so'm

Don mahsulotlari (mosh, loviya, no'xat, guruch va boshqalar)

125,6
mlrd. so'm



Ziravorlar

190,4
mlrd. so'm



Sut va sut mahsulotlari

55,4
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)



157,3
mlrd. so'm

Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-xashaklar



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-may oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **5 094,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **3 993,1** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **908,8** mlrd. so'mni, otlar **167,5** mlrd. so'mni, parrandalar **25,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **3,4 %** ni tashkil etib, **3 720,3** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **18,2 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **75,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	3 720,3	118,2	899,3	161,5	2 821,0	108,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	75,9	104,1	0,2	201,0	75,6	104,0
viloyatlar:						
Andijon	106,6	109,3	5,8	-	100,8	103,3
Buxoro	197,8	109,8	22,1	106,0	175,7	110,3
Jizzax	84,1	107,5	0,0	-	84,1	107,5
Qashqadaryo	150,5	105,8	8,7	129,1	141,8	104,7
Navoiy	118,7	107,7	17,5	111,9	101,2	107,0
Namangan	109,1	114,2	15,9	269,5	93,1	104,0
Samarqand	254,8	110,6	77,7	121,9	177,1	106,3
Surxondaryo	129,8	102,2	4,0	32,3	125,9	109,7
Sirdaryo	40,6	107,9	0,0	-	40,6	107,9
Toshkent	324,6	111,8	81,6	147,5	243,0	103,4
Farg'ona	168,1	108,4	6,8	109,8	161,3	108,3
Xorazm	72,0	108,0	2,4	582,5	69,6	105,1
Toshkent sh.	1 887,7	133,3	656,6	184,5	1 231,1	116,1



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2021- yil

2022- yil


 Nodavlat mulk

 Davlat mulki

2021- yilning yanvar-may oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **0,5 %** dan **0,2 %** ga kamaygan.


Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **3 720,3** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **118,2 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **3 714,9** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**99,8 %**) hamda **5,4** mlrd. so'm (**0,2 %**) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
O'zbekiston Respublikasi	3 720,3	100,0	3 714,9	99,85	5,4	0,15
Qoraqalpog'iston Respublikasi	75,9	2,0	75,6	99,71	0,2	0,29
viloyatlar:						
Andijon	106,6	2,9	106,6	100,0	-	-
Buxoro	197,8	5,3	197,7	99,93	0,1	0,07
Jizzax	84,1	2,3	83,7	99,53	0,4	0,47
Qashqadaryo	150,5	4,0	150,5	100,0	-	-
Navoiy	118,7	3,2	116,8	98,42	1,9	1,58
Namangan	109,1	2,9	108,7	99,64	0,4	0,36
Samarqand	254,8	6,8	254,1	99,71	0,7	0,29
Surxondaryo	129,8	3,5	129,8	100,0	-	-
Sirdaryo	40,6	1,1	40,6	100,0	-	-
Toshkent	324,6	8,7	324,0	99,83	0,6	0,17
Farg'ona	168,1	4,5	168,1	100,0	-	-
Xorazm	72,0	1,9	72,0	100,0	-	-
Toshkent sh.	1 887,7	50,7	1 886,6	99,94	1,1	0,06



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda



Mikrofirmalar va kichik korxonalar

Yirik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

73 164,6 mlrd. so'm

100,0 %

Ulgurji savdo

21 155,1 mlrd. so'm

28,9 %

Yirik korxonalar


52 009,5 mlrd. so'm

71,1 %

Mikrofirma va kichik korxonalar



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da





ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	73 164,6	118,6	21 155,1	119,0	52 009,5	118,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	920,7	100,4	146,4	64,1	774,4	112,5
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1 832,6	92,7	178,3	28,3	1 654,3	122,7
Buxoro	4 564,4	151,6	1 184,0	134,1	3 380,5	158,9
Jizzax	877,1	109,5	172,0	100,8	705,1	111,8
Qashqadaryo	1 458,0	100,2	142,8	45,5	1 315,3	115,2
Navoiy	891,6	109,9	180,0	116,5	711,7	108,4
Namangan	2 900,1	122,4	663,3	139,8	2 236,8	118,1
Samarqand	3 753,0	104,7	891,5	83,8	2 861,6	113,5
Surxondaryo	1 449,9	116,9	289,0	130,6	1 160,8	113,9
Sirdaryo	885,5	101,7	68,3	65,9	817,2	106,6
Toshkent	5 336,6	111,7	1 546,9	109,8	3 789,8	112,5
Farg'ona	3 783,4	105,2	171,3	63,3	3 612,1	108,6
Xorazm	1 756,2	114,6	335,4	104,6	1 420,8	117,3
Toshkent sh.	42 755,4	123,2	15 186,0	131,9	27 569,3	118,9

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Namangan (**139,8 %**), Buxoro (**134,1 %**) viloyatlari va Toshkent shahrida (**131,9 %**) kuzatildi.




MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,1 %** ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **73 164,6** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **73 116,8** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **27,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkini hali ham Toshkent shahrida (**0,11 %**), Navoiy (**0,17 %**) va Andijon (**0,04 %**) viloyatlarida saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi
Тел.: 71-202-80-42 (43)